



ФАН, ТАРАҚҚИЁТ ВА ЁШЛАР

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

Қарши- 2016

*Замин билан осмон - сену менман,
Саҳар билан оқшом - сену менман.
Еру осмон аро бир ишқ бордир
Ишқдан бунёд ҳижрон - сену менман.*

Ёки:

*Юлдузи йўқ осмон ёмон,
Кундузи йўқ жаҳон ёмон.
Тўйларда йиғлаган ёмон,
Вақтида ўлмаган ёмон.
Баҳорсиз келган сел ёмон,
Ботирсиз қолган эл ёмон.
Даласиз деҳқонлар ёмон,
Боласиз армонлар ёмон³*

Демак, биринчи парчадаги «осмон», «оқшом», «ҳижрон» сўзлари ички қофия «сену менман» радифга кўшимча оҳангдорлик бағишлаган. Усмон Азим қофия санъатидан фойдаланишда сўзнинг мазмун моҳиятини очишга ҳам алоҳида эътибор қаратган. Парчада «ёмон» сўзи радиф вазифасида келган бўлиб, ундан олдин келадиган қофия «осмон», «жаҳон» сўзлари ҳам радифга қофиядош ҳисобланади. Парчанинг бошида келган «юлдузи», «кундузи» сўзлари ўзаро қофиядошки, шоир бу ўринда қофиянинг сўз бошида келиш усулидан фойдаланиб, мисрадаги оҳангдорликни янада кучайтирган. Парчадаги ички қофияларнинг ранг-баранг кўриниши сажъ санъатининг яхши намунаси бўлиб, улар шеърда оҳангдорликни кучайтирибгина қолмай, фикрнинг муҳимлигини таъкидлашга ҳам хизмат қилган. Парчадаги ички қофиялар ҳаётда «нима ёмон?» деган саволни ойдинлаштиришга хизмат қилади. Шоирнинг санъаткорлиги шундаки, ҳаётдаги ёмонликнинг мазмунини очиш учун қофиядош сўзларга, шу билан бирга маъно жиҳатидан яқин ҳақиқатларга эътиборни қаратади. Масалан, ўзаро қофияланган дастлабки икки мисранинг биринчиси «Юлдузи йўқ осмон» бўлса, иккинчиси «Кундузи йўқ жаҳон» тарзида жаранглайди. Мисралар шаклан бир-бирига ҳамоҳанг бўлганидек, маъно жиҳатидан ҳам бири иккинчисини тўлдиради.

Усмон Азимнинг аксар шеърларидаги қофияланиш тизими халқ оғзаки ижоди базасида шаклланади. Лекин қофия мазкур ўринда шоирнинг мақсадига бўйсундирилган. Оҳангдорликни таъминлаш битта мақсад бўлса, унга ижтимоий мазмунни юклаш, яъни давр руҳини беришга интилиш навбатдаги мақсаддир.

Усмон Азим ҳам қофияни шунчаки шакл деб эмас, балки кўнгилдаги дардларни ифода этувчи воситалардан бири, деб билади. Шу сабабли ҳам у бир шеърда шундай ёзган:

*Кўнгил учратади ўзининг сўзин -
Қофия узатар сатрга сатр,
Оҳанглар таратар дардларни чўзиб -
Хар битта товушда топади қадр⁴.*

Демак, Усмон Азимнинг қофия ҳақидаги бундай фикрлари шоирнинг эзгу нияти ифодаси бўлибгина қолмай, қофиянинг шеърятдаги вазифасининг бир таърифи сифатида ҳам кўринади. Қофия Усмон Азим шеърятда сатрларни бир-бирига боғлаш, шоир қалбидаги туйғуларни ифодалаш воситаси бўлиш билан бирга бадиий санъат, сўз ўйини даражасига кўтарила боради.

Адабиётлар:

1. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. -Т.: Фан, 1978. -Б.12
2. Азимов У. Сайланма. Шеърлар. "Шарқ", Тошкент. 1995 й Б. 200
3. Азимов У. Сайланма. Шеърлар. "Шарқ", Тошкент. 1995 й Б. 197
4. Азимов У. Шеърлар. Ёзувчи.-1997. 15 январь

"QOBIL ILA HOBIL" DRAMASIDA INSONIYLIK TALQINI

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi: Davlatova B.
Ilmiy rahbar: N.Shodmonov*

Adabiyotimiz tarixida Olamning yaralishi, Odam Ato va Momo Havvoning paydo bo'lishi, Payg'ambarlar va ularning hayoti bilan bog'liq ko'plab afsonalar bizga qadar yetib kelgan. Dastavval, xalq og'zaki ijodida afsona va miflar keng tarqalgan bo'lsa, keyinchalik yozma adabiyotda qissachilik va dostonchilik namunalari ham paydo bo'lgan. Dastavval Rabg'uziy o'zining "Qissasi

Rabg'uziy" asarida payg'ambarlar va nabiyilar haqidagi qissalarni jamlagan edi. Yozma adabiyotimiz shakllangach, bu qissalarning turlicha variantlarini turlicha janrlarda ham yozish davom etdi. Bugungi kunga kelib esa afsona va asotirlarning yangicha va badiiy talqinini dramatik tur janrlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Taniqli dramaturg Nafas Shodmonov "Qobil va Hobil" hikoyatini yangicha talqinda gavdalantirib, "Qobil ila Hobil" dramasini yaratdi va janrni yanada boyitdi. Muallif ushbu asarini Jorj Bayronning "Kain" asari ta'sirida yaratgan bo'lsada, drama mazmuni jihatidan "Kain" dan butunlay farq qiladi. Drama asosida insoniylik, diyonat, birodarlar o'rtasidagi mehr-oqibat, birdamlik, iymon kabi tushunchalar ulug'langan bo'lsa, badnafslilik, riyokorlik, subutsizlik, hasad, qabihlik kabi illatlar qoralangan.

Dramada zamon, makon va inson muammosi qurshovga olinadi. Asar hajman kichik bo'lsa-da, inson o'zligi, uning qalb kechinmalari, iztirib va o'ylari keng yoritilgan. Drama mazmunida insonning hayotdagi o'rni, Oloh taoloning insonni boshqa mavjudotlardan ayri ravishda ongli qilib yaratganligi, inson irodasi va uning mustahkamligi, insonlarning bir biriga bo'lgan yaqinligi yotadi. Asarda bu tushunchalar Odam, Havvo, Qobil, Hobil, Abuda va Iqlima qahramonlari xarakterida, ular orasidagi to'qnashuvlarda yuzaga chiqadi. Asar boshlanishida Odam va Havvoning jannatdan quvilganliklari, mal'un gapiga kirib, qilgan gunohlari uchun bir umr azobini tortajakligi tasvirlangan. Qobil va Hobilning suhbatlari asnosida esa Hobilning birdamlikni sevishi, akasiga qanchalik muhabbatli ekanini payqaymiz:

Yo'q, hammamiz bir jon, bir tanmiz,

Otamiz bir, onamiz bir, tangrimiz birdir...

Qobil esa Iqlimaga muhabbati qanchalik kuchli bo'lsa, e'tiqod-iymoni shu qadar ojiz shaxs. Uning butun qalbini zabt eta olgan bir mavjudot bor. Bu - Yelpikdir. U inson ongida razil illatlar: munofiqlik, hasad, g'arazgo'ylik, riyokorlik kabi tug'yonlarni avj oldiradi, Qobilni o'ziga mahv etadi. U o'zini kuch-qudrat bobida Yaratgan bilan barobar hisoblaydi. Uning irodasini o'ziga bo'ysundirgach, shunday deydi:

Agar xohlamasa kishining o'zi,

Yo'ldan ozdirolmas hech kimning so'zi?

Yelpikning bu soʻzlaridan inson irodasi, eʼtiqodi mustahkam boʻlsa, uni hech qaysi yovuz kuchlar mahv eta olmasligi anglashilgan. Hobilning egizagi Abuda koʻrksiz boʻlsa-da, botinni koʻra olgan obrazdir. U botiniy va zohiriy mohiyatni Qobilga anglatmoqchi boʻladi:

*Tan mulkiga muhtalo boʻlgan,
Inson tani moddiy olamning
Bir parchasi,
U bilan aslo,
Oʻlchab boʻlmas umr mazmunin.*

Abudaning Ulugʻ tangri - Ilga murojaatida uning qalbi muhabbat bilan obod ekanini anglab yetamiz:

*Ayo, mulki olam sohibi – yaratguvchi Il!
Bizni oʻzing sevgil!
Asli, sen sevgiga munosib mahbub,
Lekin sen bizni sev; Chunki,
Faqat sening sevging pokiza, nurli,
Koʻngil gulshanida eng goʻzal chechak.
Faqat sening sevging begʻaraz, boqiy,
Jamol ham, kamol ham unga begona.*

Shayton yoʻrigʻiga kirib qolgan, koʻzlarini razillik pardasi egallagan Qobil inisi Hobilni oʻldirib qoʻygach, uning qalb koʻzari ochiladi va tangri - Ildan najot soʻraydi. Muallif voqeaning kulminatsion nuqtasida Qobil, Odam va Havvoning qalb iztiroblarini mahorat bilan tasvirlashni uddalagan. Voqea jarayoniga jinlar nutqida baho bergan:

*Har kim oʻzin oʻzi xush etar,
Boshqalarning ishi xiyonat,
Hasad tigʻin mudom berkitar,
Yorlik toʻnin kiygan qabohat.*

Drama oʻzining mohiyat koʻlami, janr xususiyati bilan dramaturgiyaning boshqa janrlaridan farqlanadi: Shuningdek, drama oʻzida aks etuvchi unsurlardan tashqari tragediya va komediyadagi ayrim jihatlarni ham oʻzida namoyon qiladi. Hobil oʻlimidagi tragik pafosni bunga misol qilishimiz mumkin. Bundan koʻrinadiki, “Qobil ila Hobil” dramasini janrning eng mukammal namunalardan biri, deyishimiz mumkin.

90	<i>Мухаммадиева М., Саъдуллаев Б., Ёзиев Э.</i>	Психологияда ўсмирлик даври муаммоларининг ўрганилиши	227
91	<i>Махатова Н., Файзиева М.</i>	Оила – жамиятнинг таянч устунни	234
92	<i>О'сарова Г., Векназарова Л.</i>	Ilk o'spirinlik davrida uchraydigan sevgi-muhabbat hislarining psixologik tavsifi	237
93	<i>Қодиров А., Шафоатов З.</i>	Muhandislik grafikasida hamkorlikda o'qitish texnologiyasining amaliy ahamiyati	239
94	<i>Namazov N. Шафоатов З.</i>	Muhandislik grafikasini o'qitishda didaktik o'yin texnologiyasining o'rni	240
95	<i>Бўриев С., Қоржовов Б., Эгамов Э.</i>	Тасвирий санъат асарларини бадий таҳлил қилишга ўргатишнинг аҳамияти	242
96	<i>Садинова Г, Бердиев Н., Қоржовов Б.</i>	Тасвирий санъатдан тематик композициялар ишлаш	244
97	<i>Rustamova I., Rahmatullayeva Sh.</i>	Xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati	247
98	<i>Amirova G., Raxmatullayeva Sh.</i>	Ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	250
ЎЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ			
99	<i>Маманова А., Жабборов Э.</i>	Кинояни шакллантирувчи тил унсурлари	252
100	<i>Tursunpulatova G., Mo'tinova S.</i>	Ayol qalbi manzaralari	256
101	<i>Баҳромов Г., Мўминова С.</i>	Муаллиф нутки ва унинг эстетик аҳамияти	258
102	<i>Валиева З., Каромова Ш.</i>	Усмон Азимнинг поэтик маҳорати	261
103	<i>Davlatova B., Shodmonov N.</i>	“Qobil ila Hobil” dramasida insoniylik talqini	263
104	<i>Boymirova D., Tojiyeva G.</i>	“Momo yer qo'shig'i” qissasida qo'llanilgan frazeologizmlar tahliliga doir	266